


## SHARQ XALQLARI MUSIQA CHOLG'ULARI



*Shahrisabz davlat pedagogika institutे*

*“San’atshunoslik” kafedrasi  
o‘qituvchisi*

**Tursunov Xusniddin Isomovich**

e-mail: [qashqarrubob2022@gmail.com](mailto:qashqarrubob2022@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda O’rta osiyo davlatlarida musiqiy cholg’ularini takomilashuvi, o’zbek milliy cholg’ularini tarixi va Sharq alomalarining musiqiy tarixga oid kitoblari haqida so’z olib broilgan.

**Kalit so’zlar:** Sharq alomalarini musiqa risollari, O’zbek milliy musiqa cholg’ulari, O’rta Osiya Davlatlarida musiqa madaniyati shaklanishini.

#### MUSICAL INSTRUMENTS OF EASTERN PEOPLES

**Abstract:** This article discusses the development of musical instruments in Central Asian countries, the history of Uzbek national instruments, and books on the history of music by Eastern scholars.

**Keywords:** musical treatises by Eastern scholars, Uzbek national musical instruments, the formation of musical culture in Central Asian countries.

#### МУЗЫКАЛЬНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ВОСТОЧНЫХ НАРОДОВ

**Аннотация:** В данной статье мы говорим о развитии музыкальных инструментов в странах Центральной Азии, истории узбекских национальных инструментов, а также книгах восточных учёных по истории музыки.

**Ключевые слова:** музыкальные трактаты Востока, узбекские национальные музыкальные инструменты, формирование музыкальной культуры в странах Центральной Азии.

O'rta Osiyo hududidagi mavjud musiqa cholg'ulari turli xil jarayonlarni boshidan kechirib, ko'pgina musiqa cholg'ulari urushlar jarayonida boshqa davlatlardan keltirilib, ba'zan boshqa xorijiy davlatlarga olib ketilib, turli xil holatlarda musiqa ijrochiligida qo'llanilgan. Umuman O'rta Osiyo madaniyati butun Sharq madaniyati rivojiga katta hissa qo'shdi. VII asrlardan boshlab O'rta Osiyo musiqa san'ati shu darajada rivojlanganligidan ham tarixda Borbad Markaziy nomli turkistonlik bastakor, hofiz, sozandaning nomi zikr etilgan. U VII asrlarda Faxlobod (Borbad) nomi bilan mashhur bo'lib uni Eronga olib ketishgan. Faxlobod o'zining musiqa mакtabini yaratib, o'n ikki maqomni ba'zi bir nusxalarini yaratilishiga asos solgan, ya'ni Turkiston musiqasini Eronga tarqatgan<sup>1</sup>.

O'rta Osiyo hududidagi O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston davlatlarida turli-tuman musiqa cholg'ulari bo'lib. Ayniqsa O'rta Osiyoning barcha hududlarida dutor, do'mbra, doira, g'ijjak, nay ko'proq uchraydi. 1972 yilda Toshkent Davlat Konservatoriyasida San'atshunoslik fanlari doktori professor Fayzullo Karomatov rahbarligida "Sharq musiqasi" kafedrasini tashkil qilinib, maqom asarlarini ijrolari, milliy musiqa cholg'ularini ijrolari qayta tiklanib, musiqa ijrochiligida ud, tanbur, qonun, nay, g'ijjak, dutor, rubob, doira, surnay, qo'shnay, sato va boshqa musiqa cholg'ularini milliy uslubdagi ijrolari ham o'rganila boshlagan. Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi. Olimlarning qidiruvlari natijasida yer ostidan va joylardan topilgan uy, ro'zg'or buyumlaridagi musiqa cholg'ularining va ijrochilarning tasvirlari aks ettirilgan suratlar va boshqa ma'lumotlarga tayanib, musiqa ilmining juda qadim tarixga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi.

Komil Xorazmiyning "Tanbur nota chizig'i"da esa maqomlar nota yozushi berilgan. Yozilgan ilmiy asarlarda har bir mutafakkir olim o'zi yashab ijod etgan davridagi musiqiy hayotga doir musiqa ilmini amaliy va nazariy sohalariga tegishli musiqa cholg'ulari va ularning ixtirochilari, sozanda, xonanda, bastakor,

<sup>1</sup>(Маъориф ва маданият журнали. Баку 1923 й. 8, 9 с)

musiqashunoslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan.Qadimiy shahar va o‘lkalarining nomlari ko‘pgina yozilgan asarlarda zikir etilgan. Masalan, O‘rta Osiyo hududidagi Movaraunnahr, Turon, Turkiston, Samarqand, Termiz, Buxoro, Farg‘ona, Xorazm, Qarshi, Shahrisabz, Ajam, Hisor, Marv va hakozo shaharlar aro “Buyuk ipak yo‘li” vositasida iqtisodiy va madaniy aloqalar olib borilgan<sup>2</sup>.

IX asrlardan boshlab “Musiqa” ilmiga va uning ijrochiligiga oid musiqiy asarlar paydo bo‘la boshladи. Farobiyning “Kitobu-l-musiqiy al kabir” (Musiqaga oid katta kitob) X-XI asrlarda Abu Ali Ibn Sinoning “Kitobu-ash-shifo”, “Donishnama” kitoblaridagi maxsus boblar. Abdulqodir Marog‘yning “Maqosid-ul-alhom” (Kuylar maqsadlari) Urmaviyning “Risolatush-sharafiya”, Qutbiddin Sheraziyning “Durratuttoj” musiqiy risolalari. Abduraxmon Jomiyning “Risolayimusiqiy” (Musiqa ilmi risolasi). Kavkabiyning “Risolayimusiqiy” asari, ya’ni “Risola dar bayoni duvozdah maqom” “O‘n ikki maqom bayoniga bag‘ishlangan risola”, Xusayniyning “Qonuni-ilmi” va “Amaliyi musiqiy”, Darvesh Ali Changiyning “Tuhfatu-s-surur” asarlari shular jumlasidandir.

Milliy musiqa cholg‘ularini deyarli juda ko‘p nusxalarini Sharq olimlari, allomalari tomonidan ixtiro etilib kelingan. Keyin boshqa davlatlarga tarqalib, ular ko‘rinish va tuzilishi jihatidan bir xil, nomlanishi, shakli, tuzilishlari, ijro etiladigan asarlari bilan bir-biridan farq qiladi.

NAY. Nay musiqa cholg‘usining yaratilishi haqida turli xil ma’lumotlar mavjud. Ulardan birida go‘yo nay temirchilarning olovini havosi orqali puflab beradigan narsasiga qiyos qilib Xorazmshoh Mavlano Safjiddin Al-Mo‘min tomonidan ixtiro qilingan deyiladi. Nay musiqa cholg‘usi zardolidan, tutdan, g‘arovdan, nuqra, kumush yoki misdan yasaladi. Unda yetti ovoz chiqaruvchi teshik pardalar bo‘lib, bittasi alohida og‘izdan nafas berish uchun, oltitasi bir joyda birin-ketin olti barmoqqa moslanib, bular asosiy sado chiqaruvchi aylana pardalar hisoblanadi. 1924 yillarda Buxoroda mavjud nay cholg‘usi to‘g‘risida quyidagicha ma’lumotlar berilgan. “Nay qamish ma’nosida forscha bir so‘zdir. Nay “birinj” yo “baqir” dan

<sup>2</sup> А.Навоий асарлари тилининг изохли луғати IV. Тошкент. 1985 йил

(kumush yoki mis) yasaladur<sup>3</sup>. Yana bir asarda tanbur musiqa cholg‘usini sozlanishida Buxoroda mavjud naylardan foydalanilganligi, ya’ni mis nay “sol”, yog‘och nay “lya-bemol”, g‘arov nay “lya” tovushlarini berib, asar ijrosida tanbur yuqoridagi naylardan biribiri “sol”, “lya-bemol” yoki “lya” tovushlariga soz qilinar ekan<sup>4</sup>. O‘zbekistonda nay musiqa cholg‘usi ijrochiligidagi keng miqyosda qo‘llaniladi.

SURNAY. Surnay musiqa cholg‘usi ham o‘z murakkabligi bilan ijrochidan ulkan mahoratni talab qiluvchi cholg‘u hisoblanadi. Surnay asosan tut, zardoli daraxtlaridan tayyorlanadi. Surnayda quyidagi nomlanishdagi tuzilmalar mavjud. Surnayning tana qismi, boshlanish tomoni kichikroq doira shaklda, quyi qismi kattaroq aylana shaklda. Uning ijrosi uchun esa misdan kichik naysimon nusxa pil tayyorlanib, surnayning yuqori qismida joylashtiriladi. Bunga nafasdan to‘g‘ri foydalanish maqsadida ebonet yoki daraxtdan aylana shakldagi “Peshdam” tayyorlab o‘rnatiladi. Uning yuqorisida esa qamishdan tayyorlangan kichik naycha yasab o‘rnatiladi. Surnayni ustki qismida yettita sado beruvchi aylana parda teshigi bor. Surnay xalq sozandalari tomonidan ikki xil uslubda ijro etiladi.

Qo‘schnay asosan ikkita qamishdan yasalgan musiqa cholg‘usi bo‘lib, avvallari faqat xalq orasida ijro etilib kelingan. Keyingi yillarda esa bu musiqa cholg‘usining ijrosi ko‘pgina musiqa dargohlarida ham o‘rganilmoqda va musiqa ijrochiligidagi keng qo‘llanilmoqda. Qamish naychani yuqori tomoni berkitilgan, pastki tomoni esa ochiq. Yuqori qismida maxsus tilchak ochilib, nafas orqali puflab ijro etishga mo‘ljallangan va yettita sado chiqaruvchi parda teshiklari mavjud. O‘zbekistonda keksa qo‘schnay cholg‘uchi ustozlardan keng tanilgan Ahmadjon Umrzoqov, Xorazmda esa Qurbonboy og‘a Otajonovlar.

Karnay katta hajmdagi misdan, kumushdan yasalgan musiqa cholg‘usidir. Karnay uch qismdan iborat bo‘lib, musiqa cholg‘ulari orasida eng baland va pastgi oktavalarda eng kuchli bas tovushli sado beruvchi musiqa cholg‘usi hisoblanadi. Albatta, karnay asosan surnay, doira yoki nog‘ora ijroligida ijro etiladi

<sup>3</sup> Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Тошкент. 1993 й. 33 с

<sup>4</sup> Н.Миронов. Музика узбеков. Самарканд. 1929

Chang musiqa cholg‘usi tanburning o‘ttiz ikki pardasidan olinib ixtiro qilingan. Ba’zi rivoyatlarda go‘yo Arastun (Arestotel) hakim Zuhro yulduziga qiyos qilib ixtiro qilgan deyiladi. Undan tashqari Abdulqodir Ma’rig‘iy o‘zining “Maqosid ul alhom” kitobidan chang musiqa cholg‘usini yuziga teri tortilgan, unga 24 ta tor ikki tomoniga ip bilan bog‘lab qo‘yilgan degan ma’lumot berilgan bo‘lib, noxun (tirnoq) vositasida ijro etilgan. Egri chang musiqa cholg‘usining bir turi bu cholg‘uning yuz qismiga teri emas balki yog‘och qoplangan. Torlari ip bilan emas, cho‘plar vositasida berkitib qo‘yilgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston hududida musiqa ijrochiligida qo‘llanila yotgan “Chang” nomli musiqa cholg‘usi Sharq va boshqa xalqlarning milliy musiqa ijrochiligida turli xil nomlanishlarga ega. Ko‘pgina musiqiy risolalarda zikr etilgan “Chang” cholg‘usi hamda XVI asrlarda Darvesh Ali Changiy ijro etgan “Chang” nomli musiqa cholg‘usi tamoman boshqa ko‘rinishda bo‘lib, hozirgi kunda musiqa ijrochiligida qo‘llanilayotgan “Arfa” musiqa cholg‘usining aynan o‘zidir. Chang sozi sozandaning o‘ng va chap qo‘llari bilan changga panjalar orqali “Chang solish” vositasida musiqa ijro etish ma’nolarini anglatadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda “Chang” cholg‘usi milliy va zamonaviy musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarrotov, Axmad Odilov, Rustam Negmatov, Abduraxmon Xoltojievlar o‘ziga xos chang ijrochiliği maktabini yaratgan ustozlar hisoblanadi. Chang musiqa cholg‘usining tovushqatori uch oktavadan iborat bo‘lib, birinchi tovush “sol” ovozidan boshlanadi. Chang ijrosi katta qamishdan yasalgan ikkita cho‘pcha vositasida ijro etiladi.

Rubob musiqa cholg‘usi ko‘pgina Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida qo‘llaniladi. Rubob musiqa cholg‘usining yaratilishi borasida turli xil ma’lumotlar mavjud. Abdurauf Fitrat o‘z kitobida quyidagi fikrni bildiradi: «Bu yigirmanchi yillarda Hindistondan keltirilgan “Sarang” ismli bir cholg‘uning rubobga juda o‘xshashligi meni juda shoshirgan edi. So‘ngra qo‘limga tushgan Darvesh Alining “Risolaiy musiqiy” asarida bu cholg‘uning Balxda yasalgani, Muhammad Xorazmshoh zamonida Xorazmda rivoj topgani ko‘rsatiladur” O‘zbekistonda Qashqar rubobi 1937 yillardan boshlab qo‘llanila boshlagan. O‘zbekiston Xalq artisti

ustoz Muhammadjon Mirzaev bilan suhbat shuni ko'rsatadiki, Toshkentda dastlab bir uyg'ur sozandasi bu cholg'uni ijro etib yurgan. Qashqar rubobining o'ziga xos ijrochilik mактабини yaratgan buyuk ustoz M.Mirzaevning xizmathlari buyukdir. Hozirgi kunda rubob musiqa cholg'usini mohir ijrochilari Sh.Mirzaev, Qobil Usmonov, Ari Boboxonov, Tohir Rajabov, Adham Xudoyqulov, Rifatilla Qosimov, Davron Ziyodov va boshqalar.

Afg'on rubobi milliy musiqa ijrochiligida asosan Buxoroda qo'llaniladi. Bu turdag'i rubob Hindistonda, Pokistonda hamda Badahshon viloyatida turlicha nomlanishlarda uchraydi. Shu bois bu rubob sozi Badahshonda "Badahshon rubobi", Afg'onistonda "Afg'on rubobi" deb ataladi. Badahshon rubobini kosaxona va dasta tuzilishi bir bo'lak yog'ochdan tayyorланади. Unda asosan 5 ta ichakdan tayyorланган torlar bo'lib, ya'ni ular turli xil yo'g'onlikda. Undan tashqari oq po'latdan tayyorланган o'n ikkita simli torlari, ya'ni qo'shimcha sado beruvchi torlari dastasining orqa yon qismida o'rnatilgan.

Tor musiqa cholg'usi asosan Turkiyada, Eron "Dastgoh"lari, Kavkaz xalqlarining "Mug'am" asarlari, umuman milliy musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo'llaniladi. Tor sozi ya'ni musiqa cholg'ulariga taqaladigan tor bo'lib bu cholg'uning nomlanishi ushbu atamadan olingan. Tor musiqa cholg'usining Eron va Ozarbayjonda tayyorланган nusxalarida aynan Eron setori singari pardalar joylashuvi bir ton, chorak tonli pardalardan iborat. Keyingi yillarda O'zbekistonda aniqrog'i Xorazm viloyatida milliy musiqa ijrochiligin cholg'u va ashula yo'li ijrosida qo'llanilmoqda. Dastlab tor musiqa cholg'usi jo'rligida Xorazmda Bola baxshi keyin esa O'zbekiston Xalq artisti Komiljon Otaniyozov Xorazm maqomlari, xalq kuylari va o'zi bastalagan musiqiy asarlarni ashula yo'li ijrolarini ijro etgan. Shundan so'ng hozirgi kunda deyarli O'rta Osiyoda ko'pgina hofiz-xonandalar "Tor" cholg'usi jo'rligida ashula yo'liga xos musiqiy asarlarni ijro etishadi.

Dutor ijrosida asosan o'ng qo'lning panjalari asosiy bo'lib, ipakdan yoki ichakdan tayyorланган torlari uriladi. Mazmuni Du – ikki, tor – tor, ya'ni ikkitor degan ma'noni anglatadi. Cholg'uda ikki tor mavjud bo'lib, birinchi tori kichik

oktavaning lya tovushiga, ikkinchisi esa shu oktavaning mi tovushiga sozlanadi. Uning sehrli ohanglari inson qalbini nurafshon etib mehr-muhabbatga, jasurlik va matonatga chorlovchi chuqur hissiyotni uyg‘otadi. XX asrning 80-yillaridan boshlab atoqli bastakor O‘zbekiston Xalq artisti G‘anisher Toshmatov tashkil etgan respublika “Dutorchi qizlar” ansamblini aytib o‘tish joizdir. Xalqimiz o‘rtasida eng ko‘p iじro etish uchun ommalashgani dutor altdir. Qolgan dutor oilasi o‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestrlaridadoimiy iじro etishga mo‘ljallangan.

Biz tasvirda ko‘rib turgan cholg‘u qadimiylar ud cholg‘usi hisoblanadi. Bu cholg‘uda olti juft tor ya’ni 12 tor mavjud bo‘lib, aniq ovozlarga ega emas. Sozandalar o‘ta sezgirlik, eshitish qobiliyatlarini ziyraklik bilan ishga solib slux yordamida iじro etiladi. Hatto xalq qo‘schiqchiligi janrida iじro etilib ashula va qo‘schiqlarga sehrli va yoqimli ohanggi bilan jo‘r bo‘ladi.

Doira musiqa cholg‘usi musiqa ijrochiligidagi asosan mezon hisoblanib, yakka iじro, ikki, uch, to‘rt, besh va ko‘proq cholg‘ular jo‘rligidagi jamoa ijrolari jarayonida hamda xonanda va sozandalar jo‘rligidagi ijrolar, bir me’yorda muayyan o‘lchovlardagi doira zarblari asosida iじro etib turiladi. O‘zbekistonda doira musiqa cholg‘usi xalq ashulalari, yallalar, terma, lapar, maqom asarlarini cholg‘u va ashula yo‘li ijrolarida keng miqyosda qo‘llaniladi. Doira iじro etiladigan iじro zarblari esa turli davrlarda har xil nomlanib, aruz vaznlari asosida tartibga keltirilib “T” va “N” harflaridan foydalanilgan. Masalan, ta-na, tan-nan, tana-nana va hakozo<sup>5</sup>. Abdurauf Fitrat doira zarblari haqida shunday ma’lumot beradi. U doira zarblarini “usul” deb ataydi. Bunda “nag‘ma” va “niqra” to‘g‘risida so‘z yuritiladi. “Musiqiy olimlarimiz musiqada usul belgilash uchun shunday harakat qiladilar. “Kuy”da bir-biriga boylanib kelgan “niqra”larning “tan” shaklida bo‘lganini “sabab-i hafit”, “tana” shaklida bo‘lganini “sabab-i saqil”, “tanan” shaklida bo‘lganini “fosila” deb ataydilar. Mana shunday qilib “usul” doiralarini doiralarini tuzadilar.

“Qo‘s-h-nog‘ora”. Bu cholg‘u ham xalqimizning qadimiylarini sozi hisoblanadi. Bejirim holda yasalgan sopol quyma bo‘lib, og‘zi mol terisi bilan qoplangan. Ular

<sup>5</sup> И.Ражабий. Макомлар масаласига доир. Тошкент. 1963. 68 с

bir-biridan farq qilib, katta va kichik nog‘oralardir. Teri qismi olovda qizdiriladi – birinchisi tarangroq qizdirilsa, ikkinchisi esa yo‘g‘on ovoz uchun pastroq qizdiriladi. Shuning uchun ushbu tantanovor milliy ohanglarda qo‘schnog‘oraning ham o‘rni beqiyosdir.

Sharq va o‘rta osiyo xalqlari cholg‘ulari azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, turli ko‘rinish va tarkiblar asosida foydalanish an’ana bo‘lib kelgan. Sharq va O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa cholg‘usozlari haqida o‘quvchi yoshlarning madaniy va ma’naviy saviyasini shakllantirish yo‘lida musiqa cholg‘ulari ham beqiyos o‘rni borligi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda milliy cholg‘ularimizning ijrochilikdagi o‘rni va mohir sozandachilik san’ati namoyondalari to‘g‘risida olib borilgan tadqiqotlar hatijasida to‘plangan malumotlardan umumta’lim maktablari musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari, musiqa va san’at maktablari hamdasan’at va madaniyat kollejlari musiqa o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

#### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Is’hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent 1963 y
2. M.M.Xayrullaev. Farobi. Toshkent 1963.
3. M.M.Mallaev. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent 1965
4. M.Raxmonov. O‘zbek teatri. Toshkent 1975 y.
5. A.Navoiy. Tanlangan asarlar. Jild III. 1948.
6. Boburnoma. Toshkent 1958.
7. F.Karomatov va boshqalar «O‘zbekiston xalq sozandalari» 1959.
8. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Musiqa San’atning Pedagogik Shakllanish Jarayonlari." *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends* 2.5 (2024): 58-62.
9. Isomovich, T. X. (2024). O ‘ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI. *Yangi O’zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o’rni va rivojlanish omillari*, 7(5), 93-99.

10. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "XX ASRDA O'ZBEK MUSIQA SAN'ATIDA TUB BURILISH, YOHUD IJROCHILIK USLUBINI YANGI SHAKLI." *Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi* 20.5 (2024): 27-31.
11. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 7.5 (2024): 93-99.
12. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Historical Pedagogical Content And Characteristics Of Dutor Instrument Performance." *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments* 2.5 (2024): 310-316.